IQTISODIY O'SISH SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA TABIIY VA MOLIYAVIY RESURSLARDAN UNUMLI FOYDALANISH MASALALARI

Xomidova Kamola G'olib qizi
Ilmiy tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun uning turli bo'limgari, tarmoqlari va sohalari o'rta-sida o'zaro mutanosiblikni ta'minlash, mamlakatda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish masalalari, aholi turmush darajasini oshirish va makroiqtisodiy barqarorlikka erishish uchun takliflar berildi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy o'sish, iqtisodiy ko'rsatkich, tabiiy va moliyaviy resurslar, "Yashil iqtisodiyot", ishchi kuchi, mehnat unumdarligi, intensiv ko'rsatkich, investitsiya.

Abstract: In this article, proposals were made for the sustainable development of the economy, ensuring mutual balance between its various departments, branches and sectors, the issues of effective use of economic resources in the country, raising the standard of living of the population, and achieving macroeconomic stability.

Key words: Economic growth, economic indicator, natural and financial resources, "Green economy", labor force, labor productivity, intensive indicator, investment.

Аннотация: В данной статье были внесены предложения по устойчивому развитию экономики, обеспечению взаимного баланса между ее различными ведомствами, отраслями и секторами, вопросы эффективного использования экономических ресурсов в стране, повышения уровня жизни населения, достижения макроэкономическая стабильность.

Ключевые слова: экономический рост, экономический показатель, природные и финансовые ресурсы, "зеленая экономика", рабочая сила, производительность труда, интенсивный показатель, инвестиции.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda qashshoqlik va kambag'allikka barham berish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash muammolari markaziy o'rinda turibdi. Soni oshib borayotgan aholi uchun mos, to'yimli va xavfsiz oziq-oqvat mahsulotlaridan foydalana olishni ta'minlash deyarli barcha halqlar to'qnash kelayotgan yeng murakkab muammolardan biri hisoblanadi. O'zbekistonni 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini, investitsion va eksport salohiyatini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mehnat bozorida keskinlik darajasini pasaytirish, aholi daromadlari o'sishi va kam ta'minlanganlikni qisqartirish nazarda tutiladi.[1]

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun uning turli bo'limgari, tarmoqlari va sohalari o'rta-sida o'zaro mutanosiblikni ta'minlanmasligi mamlakatda iqtisodiy resurslardan samarasiz foydalanishga bu yesa o'z navbatida iqtisodiy inqirozlarni yuzaga kelishiga, ishsizlik va inflatsiya darajasining oshib ketishiga va aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga sabab bo'ladi.

Iqtisodiy o'sish, jumladan uning sifati to'g'risidagi masala mamlakat, uning mintaqalari, umuman biror bir ijtimoiy tizimning rivojlanish istiqbollarini aniqlash uchun ham juda muhim. Iqtisodiy o'sish jamiyatning rivojlanish istiqbollarini prognozlash imkonini beradi. Bundan tashqari, iqtisodiy o'sish resursslarning cheklanganligi muammosini hal etish uchun sharoit yaratadi va ulardan samarali foydalalanish chora tadbirlarining ishlab chiqilishi uchun ham xizmat qiladi.



Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun uning turli bo'limlari, tarmoqlari va sohalari o'ttasida o'zaro mutanosiblikni ta'minlanmasligi mamlakatda iqtisodiy resurslardan samarasiz foydalanish bu esa o'z navbatida iqtisodiy inqirozlarni yuzaga kelishiga, ishsizlik va inflatsiya darajasining oshib ketishiga va aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga sabab bo'ladi. Ma'lumki, barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda, iqtisodiyotda modernizatsiyalash jarayoni va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda, "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishda energetika tarmog'ida resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Energetika tarmog'ida resurslar samaradorligiga erishish talabning o'zgarishiga va yangi turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuni boshlashda dastavval iqtisodiy o'sish atamasining o'zi nima, nima sababdan davlat uchun keng ahamiyatga egaligi haqida to'xtalsak.

O'Imasov va A.Vaxobovning (2014) o'zlarining "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan o'quv qo'llanmalarida Iqtisodiy o'sish hususida to'xtalib, uning mohiyatini quyidagicha yoritib berishgan: "Iqtisodiy o'sish iqtisodiyotning rivojlanishi, ya'ni hayotiy ne'matlar bo'lgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishining ko'payib borishidir". [2]

A. SH. Bekmurodov va U.V. G'afurovning (2008) fikricha, "Iqtisodiy o'sish bevosita yalpi ichki mahsulot miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatining yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi".[3]

H.P. Abulqosimov va O.Ya. Xamrayevlarning (2014 15-b) "Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish" nomli o'quv qo'llanmasida ayttilishicha: Hozirgi kunda davlat iqtisodiy tizimda iqtisodiy indikatorlarga faol ta'sir etuvchi yagona va asosiy tartibga soluvchi, muvofiqlashtiruvchi markaziga aylanmoqda, iqtisodiy o'zgarishlarga qulay sharoit yaratmoqda. Bozor iqtisodiyotini barcha jabhalari tartibga solishda davlat boshqaruviiga zaruriy element sifatida qaraladi.[4]

"Yashil iqtisodiyot" asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy-amaliy jihatlari mahalliy iqtisodchi-olimlar Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X.,[5] Maxmudov N.M, Hakimov H.A.,[6] Djo'rayeva S.Q.,[7] lar tadqiq etishgan. "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlanishini jadallashtirish mamlakatdagi ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarni isloh etish va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonlarini tadqiq etishda muhim ilmiy–amaliy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Iqtisodiy o'sish samaradorligini ta'minlashda tabiiy va moliyaviy resurslardan unumli foydalanish hozirgi holati va tendensiyasini o'rganishda umumiyligidan individuallikka va aksincha tartibda dedukcion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlash-tirish, guruhlash, taqqoslash, ma'lumotlarni grafiklar va tasvirlash usullari yordamida tadqiqotimizni boyitamiz.

TAHLIL VA NATIJALAR


Mamlakatimizda bir necha yillardan beri 5-8 % atrofida iqtisodiy o'sish kuzatilmoqda. Biroq, bozor iqtisodiyotida iqtisodiy o'sishga erishish juda mushkul. Chunki iqtisodiy liberalizm yaratib bergan imkoniyatlardan hamma subyektlar har xil foydalanadi. Buning natijasida esa iqtisodiyotning real holatini baholash murakkab-lashib ketadi. Buning uchun ko'plab modellar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularni to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiyotga tadbiq yetish ancha mushkul. Shuning uchun iqtisodiy o'sishga yerishish uchun iqtisodiy muvozanat o'rnatilishi kerak. Mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini tavsiflaydigan mazkur ko'rsatkichlar (real YalM va aholi jon boshiga real YalMning o'sishi miqdoriy ko'rsatkichlar bo'lib, ular

birinchidan, mahsulot sifatining oshishini to'liq hisobga olmaydi va shu sababli aholi turmush darajasining haqiqiy o'sishini to'liq tavsiflab berolmaydi;

ikkinchidan, real YalM va aholi jon boshiga YalMning o'sishi bo'sh vaqtning sezilarli ko'payishini aks yet-tirmaydi va aholi real turmush darajasining pasaytirib ko'rsatilishiga olib keladi; uchinchidan, iqtisodiy o'sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomonidan uning atrof-muhitga va insonning hayotiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi. Shunga qaramasdan, iqtisodiy o'sishning barcha tavsifi YalM yillik o'sish sur'atlarining foizdagi o'chovida to'liq o'z ifodasini topadi:



O'zbekiston Respublikasi



1-grafik. Yalpi ichki mahsulot hajmi (umumiy) joriy narxlarda, mlrd. so'm <http://www.stat.uz>.

Mamlakatda iqtisodiy o'sish sifatini yanada oshirish uchun birinchi navbatda, mavjud ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy muhitni yanada barqarorlashtirish lozim. Bunda iqtisodiyotni erkinlashtirish, modernizatsiya qilish, xususiy tadbirdorlikni rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy bazani takomillashtirish, ular uchun xizmat qiluvchi institutsional tizimni mustahkamlash lozim. Ushbu jarayon o'z navbatida, iqtisodiyotga jalb etilayotgan tashqi va ichki investitsiyalar hajmining o'sishi hamda aholi tomonidan moliya institutlariga qo'yilayotgan mablag'lari ortishiga olib keladi. Oqibatda iqtisodiyotda mavjud asosiy va inson kapitali hajmining o'sishi, uning jismoniy va ma'naviy eskirganlarini zamonaviylari bilan almashtirish asosida sifatning ortishiga erishiladi. Bu mamlakatda ish bilan bandlik darajasi, aholi daromadlari va malaka ko'nikmalarining o'sishi asosida iqtisodiyotga jalb etilayotgan milliy hamda xorijiy investitsiyalar oqimi ortishiga asos bo'ladi. Istiqbolda iqtisodiy o'sish samaradorligi intensiv ko'rsatkichlar asosida barqaror o'sish sifatining ortishini ta'minlaydi.

"Ko'p yillar davomida yangi gaz konlariga investitsiya kiritilmagani, elektr va gaz tarmoqlari modernizatsiya qilinmagani ham ayni haqiqat. Oqibatda tizimda aniq hisob-kitob yo'qligi, katta yo'qotishlar oddiy holga aylanib qolgan edi.

Shu bilan birga, so'nggi olti yilda aholimiz 13 foizga, sanoat korxonalari esa 2 barobar ortib, 45 mingdan 100 mingtaga ko'paydi. Natijada elektr energiyasiga talab kamida 35 foiz oshdi va yildan-yilga ko'payib bor-moqda.

Iqtisodiyotimiz barqaror rivojlanishi uchun energetika sohasiga 25-30 milliard dollar investitsiya kerak. Bunga faqatgina xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali erishish mumkin. Shu bilan birga, kichik hajmdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish keskin oshiriladi. Misol uchun, Toshkent viloyatida Olmaliq, Bekobod kombinatlari va boshqa yirik korxonalar o'z ehtiyojlari uchun 1 ming megavattli quyosh elektr stantsiyalarini o'rnatса, yiliغا 2,5 milliard kilovatt saat elektr ishlab chiqariladi. Bu orqali Toshkent viloyatining qariyb 30 foiz elektr iste'moli ta'minlanadi va 500 million kub metr gaz tejaladi." deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20 dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasida.[8]

O'zbekistonda kremniy zahiralarining mavjudligi fotoelektrik batareyalarini ishlab chiqarish istiqbolini yaratishga xizmat qiladi. "Yashil energetika"ga o'tish, innovatsion uskuna va texnologiyalarga talabni rag'batlantiradi. Bu esa milliy iqtisodiyotga "Yashil" tamoyillarni tatbiq etish uchun muhim Yoqilg'i-energetika resurslarining yetishmovchiligi va ularga bo'lgan narxlarning o'zgaruvchanligi sharoitida, mamlakatimiz aholisining hamda iqtisodiyotimiz asosiy tarmoqlarida energetika resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek, an'anaviy energiya manbalaridan muqobil energiya manbalariga o'tishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Investitsiyalar va iqtisodiy o'sish darajasi o'rtasidagi muvozanat. "Economics" darsliklaridan ma'lumki, YMMning 30% i investitsiyaga yo'naltirilsa, iqtisodiyot 6 %ga o'sadi. Demak, iqtisodiy o'sish investitsiyalar kiritishni taqazo etadi.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi, barqaror iqtisodiy o'sishga erishishi, aholi daromadlarining oshishi, turmush sharoitining yaxshilanishi aksariyat holatlarda milliy iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga jalb etilayotgan investitsiya mablag'larining hajmi va tarkibiga bog'liq. Shunday ekan, har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishi milliy iqtisodiyotga investitsiya mablag'larini jalb etishning jozibador muhitini shakllantirishga qaratilishi muqarrardir.



2-jadval. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi¹.

O'zbekiston Respublikasi	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar mlrd	72155,2	124231,3	195927,3	210195,1	239552,6	269857,5
Davlat byudjeti ulushi foizda	4,8	4,5	9,0	6,8	9,3	9,5
chet yel investitsiyalar va kreditlar ulushi foizda	23,8	24,3	43,6	42,7	42,3	42,5
Korxona aholining o'z vositalari mablag'lari ulushifoizda	47,3	42,0	29,3	40,8	38,0	43,0

Global inqirozlarning barchasi ish o'rnlari qisqarishi, ijtimoiy himoyasizlik va qashshoqlik kabi, ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlardagi barqarorlikni izdan chiqaruvchi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muam-molarni yanada chuqurlashtiradi. Zamonaviy ekologiyani asrashning bosh maqsadlaridan biri bo'lgan qayta tiklanish xususiyatiga ega manbalar va atrof-muhitga zararli bo'lgan chiqindilardan oqilona foydalangan holda olinadigan biogazlardan mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida keng foydalanishdir. Qayta tiklanuv-chi energiya – bu atrof-muhit energiya oqimidan olinadigan energiya manbaidir. Bularga quyosh, shamol, suv resurslari, geotermal manbalar, sanoat va munitsipal, qishloq xo'jalik chiqindilaridan olingan biogaz kiradi. Muqobil energiya manbalari shaharlarda birlamchi uglevodorod resurslarini tejash, mamlakat energetika xavfsizligini ta'minlashda katta rol o'yaydi.

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasining keng tarqalgan, nisbatan to'liq ta'xifi BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, "Yashil iqtisodiyot" - bu "odamlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish"ga olib keluvchi iqtisodiyotdir[9]

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi xususiyatlarga bevosita bog'liq holda ro'y beradi. Shuning uchun avvalo, o'tish jarayoni uchun qulay (huquqiy infratuzilma, rag'batlantiruvchi omillar va h.k.) muhit yaratish zarur. Agar milliy darajada qo'llanilayotgan rag'batlantirishuvchi omillar, jumladan, investitsiyalar va davlat xaridlari "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantrishga yo'naltirilsa, iqtisodiy tizimni "yashillashtirish" jarayoni yanada faollashadi

Ko'pgina mamlakatlarda qonun yo'li bilan davlat, biznes va nodavlat sektor e'tiborini mazkur sohaga qaratish, muqobil energiya manbalarining rivoji uchun davlat tomonidan rag'batlantiruvchi choralarни ko'rish, subsidiyalar siyosatini qo'llashga nisbatan munosabat shakllangan. 50 dan ortiq davlat qonunchiligidagi rag'batlantirish va subsidiya aks ettirilgan. Masalan, Xitoya qabul qilingan huquqiy hujjatlarga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya manbani, xususan, quyosh va shamol energiyasidan olinadigan elektr manbaini umummilliyl elektr tamroqlariga ularsa nazarda tutilgan. Bu davlatda qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida bir qator imtiyozlar belgilangan. 2020- yilga borib bu yerda mazkur manbadan olinadigan energiya hajmi 15 foizga yetka-zilishi mo'ljallangan.

2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida [10] belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsadida:

1. Quyidagilar:

a) quyidagi strategik maqsadlarga erishishga mo'ljallangan 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010 yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiylajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish;

sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;

yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;

1 <http://www.stat.uz>



iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish;

yiliga 200 million ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;

respublika o'rmon fondi zaxiralari ko'rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;

hosil bo'ladijan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish.

Mazkur strategiya doirasida "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar natijasi o'laroq, "Yashil" o'sish indeksidagi mamlakatning o'rni sezilarli yaxshilanishi hamda global "yashil" ekotizimni asrab-avaylashda uning munosib hissa qo'shishi ta'minlanadi.

Respublikada iqtisodiy o'sishning doimiy yuqori sur'atlari ta'minlash uchun katta zaxira va imkoniyatlar mavjud. Ularning ishtirokisiz iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlariga va makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashga erishish qiyin.

Qisqa va o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sish omillarini izlash va faollashtirish uchun mavjud va hali ishlatilmagan ichki zaxiralarni hisobga olish zarur: makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiyotning monetizatsiya darajasini oshirish, yalpi ichki mahsulotning energiya zichligini kamaytirish, tejashdan yanada samarali foydalanish, investitsiya muhitini yaxshilash, infratuzilmani takomillashtirish, AKTdan foydalanishni kengaytirish, integratsiya jarayonlarini faollashtirish, inson kapitali sifatini oshirish va hokazo.

Kelgusida ichki va tashqi bozorga raqobatbardosh mahalliy mahsulotlar turlarini ishlab chiqarishni kengaytirish uchun zaxiralarni iqtisodiy aylanmasiga maksimal darajada jalb qilish, yangi texnologiyalarga o'tish iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari ta'minlaydi. Ushbu muammolarning yechimiga ishlab chiqarishga yuqori samarali zamonaviy texnologiyalarni jadal joriy etish sharti bilan faqat mahsulot tannarxini pasaytirish va hosildorlikni oshirish orqali erishish mumkin. Buning uchun mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish uchun resurslar xarajatlarini va mahsulotlarni tashish va sotish xarajatlarini kamaytirish, texnologik yangilanish va raqamlashtirishga sarmoyalarni ko'paytirish va "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun sharoit yaratish zarur.

Bizga ma'lumki, ekologik muammolar, ya'ni atrof-muhitga chiqindilar chiqishini kamaytirishning asosiy yo'li texnika taraqqiyoti darajasining o'zgarishidir. O'z navbatida, texnika taraqiyoti iqtisodiy o'sish sifatini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. O'zbekistonda iqtisodiy o'sish barqaror darajasi davomiyligini ta'minlash va sifatini oshirish uchun omillarni miqdori emas, balki ularning samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini qo'llash zarur. Bunda mamlakatdagi mehnat va kapital miqdori o'zgarishsiz bo'lsa-da, omillar samaradorligining ortishi hisobiga iqtisodiy o'sish sifatini oshirishga erishiladi. davlat byudjetidan ilmiy-texnika ishlanmalariga mablag'lar ajratishni kengaytirish;

O'zbekiston uchun o'sishning muhim zaxiralari kichik va xususiy tadbirkorlik sohasida to'plangan. Kichik biznesni ishlab chiqarish faoliyatiga yo'naltirish, daromad va mehnat unumdorligi jihatidan yanada samarali ish o'rinalarini yaratish, ayniqsa, qishloq joylarda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, biznesning muhim qismini yashirin iqtisodiyotdan olib chiqish – bu eksport salohiyatining o'sishini, ichki talabning oshishini ta'minlaydi, investitsiya uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochadi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga salbiy tashqi shoklar sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tahlilda mamlakat 2022-yilning 1-choragida duch kelgan (Qozog'istondagi siyosiy notinchlik, elektr ta'minotidagi keng ko'lamli uzilish va Ukrainadagi mojarosalbiy omillar hisobga olingan.

Xususan, sezilarli pasayish joriy yilning fevral-mart oylarida kuzatildi. Ammo, O'zbekiston iqtisodiyoti 2-chorak davomida sezilarli darajada tiklanib yuqori sur'atlarda o'sdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Barcha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar faqat bitta maqsadga – aholi farovonligini oshirish, turmush tarzini yaxshilash va xalqimizni rozi qilishga yo'naltirilgandir. Yurtimizda ekologik toza energiya manbalardan foydalanishga qaratilgan innovatsiya loyihibalarining ishlab chiqilishi, ularga mahalliy va xorijiy sarmoyaviy manbalarning keng jalb yetilishi mazkur soha istiqbolini ta'minlashga munosib xizmat qiladi. Kelajakda iqtisodiyot taraqqiyotini innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur yetib bo'lmaydi. Bu yo'nalishda esa muqobil yenergiya manbalardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari "yashil" energiyadan keng foydalanish bo'yicha hukumat va hududiy hokimliklar qarorlarini qabul qilish; aholi va davlat energiya iste'molida energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va hokazolar.

Foydalilanigan manda va adabiyotlar ro'yxati

1. O'Imasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2014.
2. Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. (2008) O'zbekiston iqtisodiyotni modernizasiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning Yangi va yuksak bosqichi yo'lida. –T.: Iqtisodiyot, – 126 b.
3. Abulqosimov H.P., Xamrayev O.Ya. (2014) "Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish" o'quv qo'llanma. –Toshkent 15-b.



4. A.V. Vaxabov, Sh. X. Xajibakiyev (2017) "Yashil iqtisodiyot" asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari, "XXI asr: fan va ta'lif masalalari" ilmiy elektron jurnali. №2.
5. Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash-barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti, "Iqtisodiyot va Ta'lif" ilmiy jurnali, №2, 2017.
6. Barqaror iqtisodiy o'sish va uni ta'minlash bosqichlarining tahlili, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №6, noyabr-dekabr, 2014 yil
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-y 20-dekabry Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi.
8. Nashe obshcheye budushcheye. Vsemirnaya komissiya OON po okrujajuishchey srede i razvitiyu, Oksford, 1987. 347 s.40
The Ecological Wealth of Nations: Earth's Biocapacity as a New framework for International Cooperation; Human Development report, 2009.

Internet manbalari

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son. <https://lex.uz>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
11. www.stat.uz– O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi.

Yashi

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

